

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI O‘QUV FAOLIYATINING SHAKLLANISHI HAMDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Aliyeva Nargiza Tolibjonovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 15- umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati bo‘lgan o‘qish shu yoshdagi bolalar psixikasi rivojidagi o‘zgarishlarni belgilab beradi. Maktab ta’limi o‘quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o‘rnini o‘zgartiradi. Uning vazifasi o‘qishdan, bilim olish, ko‘nikma va malakalarni egallash, o‘zlashtirishdan iborat bo‘lib qoladi. Bunda bolalar muhitga moslashishi zarur bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlari murakkab bo‘lgan ko‘p darajali motivlar tizimi yordamida boshqariladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, o‘quv faoliyati, o‘qitish jarayoni, ta’lim konsepsiyasi, kommunikativ texnologiyalar.*

KIRISH

Ona tilimiz jamiyatimiz boyligi, u jamiyat a’zolarining ya’ni bizning o‘zaro aloqamizni amalga oshiradi, bizning moddiy va ma’naviy turmushimizda ro‘y beradigan barcha voqea va hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Shunday ekan, o‘z ona tilimizni ulug‘lash, mavqeini yanada yuksaltirish, uning jahonaro yangrashiga hissa qo‘shish o‘zini shu yurtning haqiqiy farzandi deb bilgan har bir inson uchun muqaddas burchdir.

Tilshunos olimlar tilni ijtimoiy hodisa deya ataydilar. Chunki til bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Shuningdek, u ayrim shaxslarga emas, butun jamiyatga xizmat qiladi. Bundan tashqari, til eng muhim aloqa vositasi ekanligi, u orqali ajdodlarimizning qimmatli merosi yozma shaklda saqlanib bizgacha yetib kelganligi ham uning hayotimizda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishining yaqqol dalilidir. “Til – bu millatning tarixi. Til – rivojlanish va madaniyat o‘chog‘i. Shuning uchun ona tilini o‘rganish va uni asrash shunchaki bekorchi mashg‘ulot emas, balki zaruriy ehtiyoj hisoblanadi” – deb yozgan edi Aleksandr Ivanovich Kuprin. Shunday ekan, bugungi kunda, nafaqat, ta’lim tizimida o‘zbek tilining o‘rni, balki shu tilni yosh avlodga yetkazib berishdek mas’uliyatli vazifani zimmasiga olgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning saviyasi, bilimdonligi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchilarga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi dolzarb masalalar bugunning asosiy masalalaridandir. Sezilib turibdiki, bizning zimmamizga o‘ta mas’uliyatli vazifa yuklatilgan. Albatta, kelajak yosh avlodlarimizning qo‘lida ekan, biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z kasbimizni mukammal egallashimiz va har daqiqa mas’uliyatni his qilmog‘imiz, o‘z ustimizda ishlamog‘imiz lozim.

Inson tafakkuri uning tilida aks etadi, va ana shu til orqali rivojlanadi. Shuning uchun ham ular ikkisi o'zaro bog'liq. O'zbek tili bu o'zbek tafakkuri degani! Bu esa til, unga oid bilimlar qanchalik chuqur, so'zlashuv va qo'llanilish doirasi qancha qancha keng bo'lsa, bu o'sha til egalari bo'lmish xalqning bilimliligidan, savodliligidan o'z ona tili mazmun-mohiyatini anglab yetganligidan dalolat beradi. Dunyodagi qay bir xalqni olmaylik, uning jahon siviliziyasidagi o'rni va mavqei, betakror milliy o'zligi va tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Milliy o'zlikning birinchi belgisi yuqorida aytganimizdek uning milliy tili bo'lib, u millatning millat bo'lib shakllanishining muhim shartlardan biri hisoblanadi. Til bo'lmasa el ham, millat ham bo'lmaydi. Elni – el, millatni millat darajasiga ko'taradigan uning yashashi va faoliyatini belgilab turadigan vosita til ekan, u bilan butun insoniy qiyofalar shakl-shamoyiliga ega bo'ladi. Xalqning madaniy - ma'naviy boyligi, aql idroki va ilmiy, tarixiy madaniy boyliklari ham uning tilida o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda til xalqning qalbi va borlig'idir.

Bundan tashqari, Ona tilimiz jamiyatimiz boyligi, u jamiyat a'zolarining ya'ni bizning o'zaro aloqamizni amalga oshiradi, bizning moddiy va ma'naviy turmushimizda ro'y beradigan barcha voqea va hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Shunday ekan, o'z ona tilimizni ulug'lash, mavqeini yanada yuksaltirish, uning jahonaro yangrashiga hissa qo'shish o'zini shu yurtning haqiqiy farzandi deb bilgan har bir inson uchun muqaddas burchdir.

Boshlang'ich sinf ta'limi mohiyati o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan yuzaga keladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istak va ishtiyoqini rivojlantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikmalarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining muhim komponentlari: o'quv masalalari, o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat qilish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. O'quvchining o'quv faoliyatini o'zlashtirishi o'quv masalalari tizimini yechish jarayonida amalga oshiriladi. O'qishning boshida boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar mustaqil ravishda o'quv masalalarini qo'yish va yechishni bilmaydilar. Bu vazifani boshida o'qituvchi bajaradi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilarning o'zlari ham o'quv masalalarini qo'yish va yechish uchun kerak bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallay boshlaydilar.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori sanaladi. To'g'ri tashkil qilingan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. Hozirgi vaqtda boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida ushbu tizimning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan bo'lib, bolaning ongi va tafakkuri mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash hamda rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarning o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki

hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati har bir bolaning salohiyatini rivojlantiruvchi va doimiy rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyatga erishishga tayyorlaydigan izlanish, kashfiyotlar va uzluksiz o'sish bo'yicha umrbod sayohat uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqishlarini shakllantirish maqsadida, o'quv jarayoniga boshlang'ich ta'lim mazmunini integratsiyalashni targ'ib qilish, yangi innovatsiyalarni kiritish, axborot kommunikativ texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida ta'lim sifatini oshishiga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashda o'quvchilarning shaxsiy individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o'quv jarayoniga jalb etishning pedagogik-psixologik asosini tashkil etib, ularda o'ziga ishonch hissini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z o'qituvchisi bilan yaxshi emotsional munosabatda bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad hamda vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyatining xususiyatlari yaxlit rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi, ijodkorlikni rivojlantiruvchi va o'qishga umrbod muhabbat uyg'otadigan dinamik va boyitilgan o'quv muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. O'yinga asoslangan ta'lim, amaliy tajribalar, ko'p hissiy texnikalar, hamkorlikdagi loyihalar va so'rovga asoslangan yondashuvlarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar yosh o'quvchilarning turli ehtiyojlari va ta'lim uslublarini qondira oladi, ularning akademik, ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: RO'YXATI:

1. Avlaev O.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvurida o'qituvchi timsoli. "Maktab va hayot" jurnali. 2019,
2. Jabborov A.M. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. –Toshkent: "Zarqalam", 2006.
3. M.F.Qurbonova, S.B.Qorayev, Uzluksiz ta'limda o'quvchilarning o'quv bilish kompetensiyasini shakllantirish yo'llari // Uzluksiz ta'lim, 2020.
4. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. Maktabgacha pedagogika. –T., 2019.